

Loyihani moliyalashtirish imkoniyatini baholash uchun kerakli hujjatlar:

1. Ko'p kvartirali uy-joy qurish uchun belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjat yoki bino va inshootlarning ixtisoslashishini o'zgartirish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurishni loyihalashtirishga ruxsatnoma;
2. Elektr energiya, gaz, issiqlik energiyasi, suv va kanalizatsiyaga ulashning texnik shartlari (ART). Shuningdek, loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi;
3. Loyiha va smeta hujjatlari (PDF va Excel) hamda talab etiladigan litsenziyaga ega bo'lgan ekspertiza tashkilotining loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish axborot tizimida (<https://new-ekspertiza.mc.uz>) ro'yxatga olingan, <https://open-data.mc.uz/chart> platformasida mavjud bo'lgan ekspertiza xulosasi;
4. Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasidan qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyekt ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida ko'chirma;
5. Kredit muddatiga mos ravishda qurilishdagi tavakkalchiliklarni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnoma nusxasi hamda sug'urta polisi (tasdiqlangan elektron shaklda ham bo'lishi mumkin) taqdim etilishi kerak. Bunda sug'urta to'lovlari har yili belgilangan transhlar asosida amalga oshirilishi mumkin.
6. Davlat ekologik ekspertizasi xulosasining nusxasi;
7. Qurilish-montaj ishlarini bajarish jadvali hamda pudrat shartnomalari nusxasi;
8. Texnik buyurtmachi/buyurtmachi bilan loyiha tashabbuskori o'rtasida tuzilgan shartnomasi nusxasi;
9. Ayrim hollarda qo'shimcha ravishda Respublikaning seysmik faol zonalarida qurilishi rejalashtirilayotgan turar-joy binolari (havflilik omili IV toifaga mansub bo'lgan bino va inshootlarga) Fanlar akademiyasining zilzilabardoshlik bo'yicha ilmiy xulosani so'ralishi mumkin;
10. Qurilish obyektida bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) dalolatnomalari (2-shakl, 3-shakl), haqiqatda bajarilgan ish hajmini tasdiqlovchi hujjatlar (hisob-faktura, yuk xatlari va boshqalar).

Ayrim hollarda, bajarilgan ishlar va ajratiladigan kreditdan tashqari, keyinchalik loyiha tashabbuskori tomonidan jalb qilinadigan mablag'lar ham bo'lishi mumkin.

Bunda, har ikki holat bo'yicha korxonalar ta'sischi tomonidan bajarilgan va bajariladigan ishlarning hajmi va moliyalashtirish manbasi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi kerak.

11. Texnik iqtisodiy asosnoma. Uning tarkibida moliyaviy model keltirib o'tilgan bo'lishi zarur. Moliyaviy model, bunda loyihaning moliyaviy barqarorligi, kredit mablag'larining samarali ishlatilishi, shuningdek, kvartiralar (yoki ko'chmas mulk obyektlari) sotuvidan kutilayotgan daromadni hisoblash uchun tuziladigan tahliliy hisob-kitoblarni va jadvallarni ta'lim;

12. Ta'lim hujjatlari va unga kiritilgan barcha o'zgartirishlar;

13. So'nggi hisobot sanasiga (agar mavjud bo'lsa, so'nggi 2 yil uchun) moliyaviy hisobotlar (balans, foyda va zarar to'g'risidagi hisobot va boshqa hujjatlar).

14. Boshqa banklarda mavjud hisobvaraqlar va ularning oxirgi 24 oy davomida aylanmalari haqida batafsil (yoyilma) ma'lumotma;

15. Boshqa banklardan olingan kreditlar mavjud bo'lsa, ular haqida batafsil (yoyilma) ma'lumotnoma;

16. Garovga olinadigan ko'chmas mulkning kadastr hujjatlari va unga nisbatan huquq turini belgilab beruvchi yuridik hujjatlar (qaror, ko'chirma, bayonnoma, order, oldi-sotdi shartnomasi va boshqalar) hamda baholash hisoboti;

17. Bankning moliyalashtirish qarorini qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar (bankning ichki nizomlari va mahsulot talablari asosidagi ma'lumotlar, shu jumladan loyiha tashabbuskorining ta'minot obyektlarini garovga qo'yish bo'yicha hujjatlari va boshqalar).